

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.com>



KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat

KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI

MUAMMOLARI..... 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI 10-12

Odinayev Mirjalol

"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA

QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA

SOLISHDA INNOVATSION YECHIM 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON

TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI 23-25

Xalilov Baxodir

ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY

VILOYATI MISOLIDA 26-31

Xoliqova Ra'noxon

"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI, GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" 32-34

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB

AHAMİYATI 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:

A CASE STUDY OF UZBEKISTAN 39-43

Raxmanov Ulugbek

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ

TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH 44-45

Toshtemirov To'lqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI 46-49

Mansurova Sayyora

INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA

ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM

GLOBAL EXPERIENCES 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI..... 61-66

Gafurova Munojat

O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'İY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHİTİNİNG GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNİNG O'RNI 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLİY - MADANIY XUSUSİYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA 96-99

Bahromjonova Shahnoza

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLİL* 100-102

Ayimbetova Damekhan

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI* 103-107

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

*INTIZOMİY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR*..... 108-110

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALТИRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
PSIXOLOGIYA FANLARI	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Mamatqosimova Nodira Eshquvatovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti katta o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada madaniy tadbirlar ssenariysini yaratishda badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish usullari yoritilgan bo'lib, ssenariy mavzusi va g'oyasi asosida badiiy adabiyot asarini tanlash, tanlangan asarni inssenirovka qilish va ssenariy mazmuniga badiiy sintezi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ssenariy, ssenariynavis, badiiy adabiyot, inssenirovka, rejissyor, madaniy tadbir, tempo-ritm.

METHODS OF USING WORKS OF FICTION IN SCRIPTWRITING

Mamatqosimova Nodira Eshquvatovna

Senior Lecturer, Uzbekistan State Institute of Arts and Culture
Tashkent, Uzbekistan

Annotation. This article discusses the methods of using samples of fiction in the creation of cultural event scripts. It provides information on selecting a literary work based on the theme and idea of the script, dramatizing the chosen work, and artistically synthesizing it into the script's content.

Key words: script, scriptwriter, fiction, dramatization, director, cultural event, tempo-rhythm.

Kirish. Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy rivojlanishida adabiyot va san'atning o'rni, ahamiyati, maqsad va vazifasi, qolaversa samarasi muhim rol o'yaydi. Xususan, ommaviy san'at asarlari hisoblangan teatr, kino yoki ommaviy sahna tadbirlarisiz mazmunli maqsadga erishish qiyin ko'rindi.

Yangilangan konstitusiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'naliishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash" maqsadida qabul qilingan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida "ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish, yuksak badiiy-g'oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish, madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash, madaniyat va san'at sohasidagi fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo'naliishlar bilan boyitish" [1] kabi muhim vazifalar belgilangan.

Respublikamizning ijtimoiy-madaniy faoliyat, jumladan san'at ta'limini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik hujjalarda sohaviy va ta'limiy jarayonlarda fundamental tadqiqot ishlarini olib borishning huquqiy asoslari yaratilgan.

Bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan yuksak maqsad va marralarimiz barcha sohalar qatori madaniyat va san'at jabhasida ham oldimizga dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Avvalo, milliy madaniyatimiz va

san'atimizda xalqchilik tamoyillarini yanada oshirish, uni tom ma'noda el-yurtimizning qalbi va yuragini ifoda etadigan, eng yuksak xalqaro mezon va talablarga javob beradigan sohaga aylantirish – eng muhim vazifadir. Aholi, avvalo, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimizni turli buzg'unchi g'oyalari, ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlashda biz sizlar kabi minglab fidoyi madaniyat va san'at namoyondalariga tayanamiz” – degan fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi [2; 447-b.].

San'at va madaniyat, xususan, teatrlashtirilgan ommaviy bayramlarda ham milliylik, xalqchilik, ulug'vorlik, serqirralik va mazmundorlik sifatlari yuksalmoqda. Mamlakatimizda teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlarga alohida e'tibor berilmoqda. Bu holni xalq san'atining yangi bir yutug'i sifatida baholash lozim. Bu esa o'z navbatida ommaviy bayramlar, teatrlashtirilgan hamda estrada tomosha san'ati rejissyorlarini tayyorlash jarayoniga katta mas'uliyat yuklaydi.

Keyingi yillarda o'tkazilayotgan “Mustaqillik”, “Navro'z”, yubiley va sport tadbirlari yuqorida fikrlar isboti sifatida tantanali nishonlanib kelinmoqda. Malakali mutaxassislar ya'ni, rejissyorlar, baletmeysterlar, musiqachilar, rassomlar va xonandalardan tuzilgan ijodiy guruh tomonidan sahnalashtirilayotgan har bir bayram va tomoshalarning sifat ko'rsatkichi, puxta rejissura asosida qurilganligi har bir tomoshabin ko'nglida ajoyib taassurot qoldirmoqda. Umuman o'tkazilayotgan tadbir savyasi eng avvalo ssenariyga bog'liqidir.

Ssenariynavislik tarixiga nazar tashlasak yozuvchilik tarixini ko'ramiz. Adabiy turlar – nazm, nasr, drama va eposlar qachon paydo bo'lgan bo'lsa, ssenariylar ham o'shanda paydo bo'lgan, deyishga asosimiz bor. Chunki ssenariylarda epik kenglik, dramaturgik o'tkir ziddiyatlar, nasriy tasvirlar, nazmiy nafosat aks etadi.

U.X.Qoraboyev, B.S.Sayfullayev, M.R.Yusupova, F.E.Ahmedov, J.D.Dushamov, V.Q.Rustamov, J.A.Mamatqosimov kabi tadqiqotchilar ishlarida ssenariynavislik masalalari ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi, madaniy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyalari jarayonida badiiy-ifodaviy, ta'sirchan vosita sifatida qo'llanilishi, ommaviy bayramlar va tomoshalarda ssenariynavislikning o'ziga xosligi, kino, televideniye va radio ssenariynavisliklaridan farqli jihatlari o'rganilgan. Ssenariyga ta'rif berilib, ssenariy turlari qayd etilgan. Ssenariyni tayyorlash bosqichlari, ssenariy uchun manba tanlash usullari, tanlangan manbalarni badiiy sintezlar va inssenirovka qilish usullari yoritilgan.

Jumladan, “Ssenariy – deb yozadi bayramshunos olim U.X.Qoraboyev – italyancha so'z bo'lib, asarning sxemasi, plani degan tushunchani bildiradi. Ssenariy – bu bo'lg'usi tadbirni tayyorlash uchun asosiy badiiy manbadir. Ssenariyda tadbirning g'oyasi, oliy maqsadi, kompozitsion tuzilishi aks ettiriladi” [5; 36-37 b.].

Ssenariy – italyancha so'z bo'lib, kinoda, televideniyeda, teatrlarda qo'yiladigan pesalar, ommaviy tomoshalar dasturi, rejasi, syujet, sxemasi, kirish payti, chiqish vaziyatidir. “Ssenariy” so'ziga forscha “Navisanda” – yozuvchi, adib ma'nosidan “navis” qo'shilib, “Ssenariynavis” atamasi yaratilgan va tatbiq qilingan” [4; 3-b.].

Ssenariy yozish uchun ham, hamma turdag'i badiiy asar yaratish uchun avvalo iste'dod bo'lishi kerak. Ko'pincha yozuvchilik salohiyati yo'q rejissyorlar o'zları ssenariy yozib, o'zları ekranga olib chiqishadi. Bu ham ko'ngildagidek ekran asari bo'lmaydi. O'zbek teatri tarixida ham juda ko'p mashhur rejissyorlar pesa yozib o'zları sahnalashtirganlar. Lekin ularning birontasi dramaturg sifatida e'tirof etilmagan.

Ssenariy yozishda birinchi navbatda mavzu tanlash kerak. Avvalo tanlangan mavzuni chuqur o'rghanish taqazo etiladi va tomoshabinga ko'rsatmoqchi bo'lgan fikrlarni avval fikran pishitib olmoq, uni xazm qilmoq va undan ssenariyni ishlab chiqarish xolatiga keltirish kerak. Bu uzoq va mashaqqatli mehnat talab qiladi.

Ssenariynavis o'z asarida inson harakatidan obraz yaratish uchun inson psixologiyasini yaxshi bilishi zarur. Xarakterlarning ijobiy-salbiy ko'rinishi jamiyat uchun qanday oqibatlar keltirib chiqarishini bilish kerak. Shunga yarasha o'z qahramonlarini harakatlantirib tomoshabinga ibrat maktabi sifatida ko'rsatish kerak.

Mavzu qaysi yo'nalishda bo'lmasin, hammasining g'oyasi birinchi navbatda milliy qadriyatlar ma'naviyati, keyingi navbatda baynalminal ruhiyati ya'ni umuminsoniy g'oya uyg'un bo'lishi kerak.

Ssenariynavis ham o'z ssenariylari bilan Vatan tuyg'usi, millat erki, qayg'usi uchun hamisha jasorat bilan ekran maydoniga chiqmoqligi kerak. Shunda milliy va umuminsoniy kino, teleserillar dunyoga kelib jahon ekranlaridan munosib o'rin egallaydi.

Ssenariy yaratishda badiiy adabiyot namunalaridan foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- ❑ ssenariy mavzusi va g'oyasiga mos adabiyot namunalari tanlash;
- ❑ tanlangan asarlar tahlil qilish;
- ❑ tahlil qilingan asarlar inssenirovka qilish;
- ❑ inssenirovka qilingan asar ssenariyning mos voqealar qatoriga kiritish.

Badiiy adabiyot namunalaridan, masalan roman yoki qissalardan parcha tanlash va inssenirovka qilishda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:

- ❑ tanlangan roman yoki qissani to'laqonli mazmunini o'zlashtirish;
- ❑ tanlangan roman yoki qissaning asosiy syujetini aks ettiruvchi parchasini tanlash;
- ❑ tanlangan materialni o'qish;
- ❑ tanlangan materialni tahlil qilish;
- ❑ tanlangan materialni inssenirovka qilish.

Ommaviy bayramlar ssenariysi – sintetik asardir. Ommaviy bayram va tomoshalarda qahramonlarning masshtabi juda ham kengdir. "Har bir ssenariyning badiiy darajasi, umumiyl dramaturgiyada bo'lganidek, epizodlarning dramaturgik tugallanganligi, kartinaning obrazli yakunlanganligi, tomoshabinga ta'sir etuvchi emotsiyal kuchlarning boshidan oxirigacha rivoji, dramaturgiya talablariga javob bera olishi bilan belgilanadi" [3, 30].

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, ssenariy yaratishda badiiy adabiyot namunalari o'rini va maqsadli foydalanish, bo'lg'usi tadbirning ma'naviy va badiiy qiymatini kafolatlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sun farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-sun.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 520 b.
3. Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 208 b.

4. Muhamedaliyev H. Ssenariynavislik mahorati. Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2009. – 140 b.
5. Qoraboyev U.X. Badiiy-ommaviy tadbirlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1986. – 240 b.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.